

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 152 (1478), 2025-yil 26-iyul, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



KASBIY TA’LIM BO’YICHA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH BANDLIKNI TA’MINLASH OMILI

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi bandligini ta’minlash va kasbiy ta’lim tizimidagi yangi yondashuvlarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Joriy yilda bu sohada xorijiy tajriba asosida yangi yondashuvlar yo'lga qo'yildi. Banklar mahallalarga bog'lanib, aholi bandligini ta'minlashga xam hissa qo'shmoqda. Xususan, birinchi yarim yillikda 3 milliondan ziyod aholi daromadli mehnatga jalb qilindi.

Kambag'allikni qisqartirish borasida yaratilgan tizim hamda sarflanayotgan mablag'lar o'z samarasini berib, joriy yilning 1-iyul holatiga ko'ra, kambag'allik darajasi 6,8 foizni tashkil qildi.

Aholi bandligini oshirishda kasbiy ta'lim sifati juda muhim. Bu borada ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish, malaka oshirishni yangi darajaga ko'tarish hamda xususiy sektor ishtirokini ta'minlash talab etilmoqda. Kasbiy ta'limning mehnat bozori ehtiyojlariga mos kelmasligi kadrlar tayyorlashda muayyan muammolarga sabab bo'lmoqda.

Mehnat munosabataridagi ayrim me'yorlar tadbirkorlik subyektlari, ayniqsa, kichik korxonalar uchun murakkablik tug'dirmoqda. Ishga qabul qilishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti.

Shuningdek, amaldagi talablar ish beruvchilarni haqiqiy vakansiyalarni ochiq e'lon qilishga rag'batlantirmaydi. Oqibatda bu ma'lumotlarni yashirishga olib kelib, mehnat bozorini to'g'ri tahlil qilish hamda kasbiy ta'lim yo'nalishlarini aniqlash imkonini cheklamoqda.

Taqdimotda mazkur muammolarni hal etishga qaratilgan yangi reja va tashabbuslar haqida ma'lumot berildi.

Unga muvofiq, mehnat organlari ish beruvchilarga nisbatan jazo qo'llovchi emas, balki hamkor sifatida faoliyat yurituvchi, ularga xizmat ko'rsatuvchi tuzilmaga aylanishi ko'zda tutilmoqda.

Xususan, ish beruvchilar tomonidan bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi majburiy ma'lumotlarni taqdim etmaslik va jo'natilgan nomzodlarni ishga olmaslik uchun jazo choralarini bekor qilish taklif etilmoqda. Bu orqali bandlik organlari ish beruvchilardan to'g'ri va haqqoniy ma'lumotlarni to'plab, ularga ish izlayotgan fuqarolarni yo'naltiradi. Ish beruvchi esa nomzodni qabul qilish yoki qilmaslikni o'zi hal etadi.

Ushbu tizimni joriy etish uchun maxsus elektron platforma yaratilib, dastlab Toshkent shahrida tajriba tariqasida boshlanadi va keyinchalik butun mamlakat bo'yicha tatbiq etiladi.

Shu bilan birga, mutaxassis topish murakkab bo'lgan vakansiyalar kasbiy ta'limning asosiy yo'nalishlariga aylantirilib, tayyorgarlik jarayonlarini maqsadli tashkil etishga xizmat qiladi.

Kasbiy ta'lim sifatini yanada oshirish maqsadida xususiy sektor vakillarini Kasbiy ko'nikmalar markazlari faoliyatiga jalb etish, ayrim markazlarni esa aniq sohalar bo'yicha ixtisoslashtirilgan ta'lim maskanlariga aylantirish rejalashtirilgan.

Mutasaddilarga kasbiy ta'limni uch bosqichli tizimga o'tkazish vazifasi qo'yildi. Jumladan, internet orqali bepul videodarslarni joriy etish, ishlovchi fuqarolarga qayta tayyorgarlik yoki malaka oshirish uchun "kasb vaucheri" orqali imkoniyat yaratish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari malakali kadrlar tayyorlash respublikada ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladigan eng muhim omillardan biri ekanini ta'kidladi.

O'ZA

BOSH MAQSAD — MILLIY O‘ZLIGIMIZNI ANGLASH VA TARG‘IB ETISH



O'tgan har bir soniya — tarix. Bu tarixning qanday yozilishi esa jamiyat, insonlar hamda davlat boshqaruvi tizimi qay darajada oqilona va adolatlilik ekaniga bog'liq. Yangi O'zbekiston davrining o'tgan to'qqiz yili xalqimiz hayotida unutilmas voqealar, yuksak natijalar bilan yodda qoldi. Boshqacha aytganda, o'zbek davlatchiligi buyuk o'zgarishlar va samarali islohotlar bilan boyigan, inson qadri eng oliy qadriyatga aylangan, milliy ma'naviyat va madaniy merosga munosabat yuksak bosqichga ko'tarilgan davr sifatida tarix zarvaralaridan joy olmoqda.

Bugun yurtimizning boy tarixini chuqur o'rganish, bu yo'nalishda ilmiy tadqiqot faoliyatini jadallashtirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar va ajdodlarimizning bebaho merosi ruhida tarbiyalash, jamiyatda vatanparvarlik ruhini

mustahkamlash yangi O'zbekiston strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Milliy tarix, madaniyat va ma'naviyatga chuqur hurmat, ularni asrab-avaylash va yanada boyitish, shu bilan

birga, yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash taraqqiyotga intilayotgan har qanday jamiyat uchun hal qiluvchi omildir. Ana shu haqiqat yangi O'zbekiston davrida barcha sohalarda namoyon bo'lmoqda.

Keyingi yillarda yurtimizda tarixni xolis va haqqoniy o'rganish, ochilmagan sahifalarni tadqiq etish borasida keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan, 2017-2021-yillar davomida Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy kabi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilishi milliy ma'naviyat va ma'rifatimiz yuksak qadrlanganining yorqin ifodasidir.

Davomi 3-betda

HAMJIHATLIK, TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIK BILAN YURT OBOD BO‘LADI



30-iyul – Xalqlar do‘stligi kuni

Tojiklar o‘zbekchada, o‘zbeklar tojikchada o‘z ona tilidek gaplashadigan qishloqda tug‘ilib o‘sganman. Keyin taqdir taqozosi bilan mehnat faoliyatim ham shu ikki millat bir el bo‘lib yashaydigan hududda boshlandi.

Aslida, yurtimizda ikki millat vakillari aralash yashaydigan qishloq va mahallalar ko'p. Bunday joylarda yashaydigan o'zbek va tojik xalqlarining qiyofasi, xatti-harakatlari, kiyinishi yoki udumlariga qarab bir-biridan ajratish qiyin. To'g'risi, tashqaridan kelgan odam ularning farqiga bormaydi. Negaki ko'p millatli xalqimiz

ham bir-birini ajratib ko'rsatmaydi. Aksincha, quda-anda, qavm-qarindosh bo'lgan. To'y-ma'rakasi birga, ko'klamda Navro'zni birga nishonlaydi, chavandozlari bir davrada ko'pkari chopadi. Shu bois, ularni ikki tilda so'zlashadigan bitta xalq deyishadi.

Davomi 2-betda



Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot oldidan

QOG‘OZBOZLIKDAN QUTULGAN ISHBILARMON

VAQTINI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRYAPTI



Hozir tadbirkorlikka qadam qo'yayotgan yoshlarning ko'pi bir vaqtlar bu soha egalari aksar davlat idoralarining tayyor "o'ljasi" bo'lgani, ishini boshlagani hamon boshi tekshiruvlardan chiqmagani, haddan oshgan soliq to'lovlari uncha-buncha ishbilarmonning ishini orqaga tortganini bilmaydi. Bularni bilmagani, tasavvur qilmagani ham yaxshi. Chunki bugun tadbirkor davlatning do'sti, himoyasidagi soha egasi sifatida har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgan ekan, odamlar hech ikkilanmay ish boshlab, biznes egasiga aylanmoqda.

So'nggi yillarda yurtimizda yaratilgan qulay va erkin ishbilarmonlik muhitidan ko'zlangan maqsad ham shu aslida. Ayniqsa, tadbirkorlar faoliyatida uchraydigan ortiqcha ovoragarchiliklar, hisobot yuki va to'siqlarni kamaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu o'zgarishlar ularning vaqt va mablag'ini tejash, faoliyat samaradorligini oshirish bilan birga statistik hisobotlar to'liq, to'g'ri va o'z vaqtida taqdim etilishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatyapti.

Ya'ni tadbirkorlar faoliyati qancha erkin bo'lsa, shaffoflik va oshkorlik shuncha ortadi. Ortiqcha tazyiq va keraksiz

ovoragarchiliklar bo'lmagan joyda biznes egasi ham to'g'ri ishlaydi, hisobotlarni halol yuritib, soliqlarni o'z vaqtida to'laydi. Hisobotlar deb aytayotganimiz tadbirkorning faoliyatini avvalgidek tekshirish, ishga aralashish maqsadida talab qilinadigan "qog'ozlar" emas. Gap mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tizimli tahlil qilish, real vaziyatni baholash va asosli qarorlar qabul qilishda muhim axborot manbai bo'lgan statistik hisobotlar haqida boryapti.

Davomi 4-betda

So'nggi yillarda mamlakatimizda "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida amalga oshirilgan islohotlar tufayli barcha jabhada, jumladan, sog'liqni saqlash tizimida ham xayrli o'zgarishlar kuzatilmog'da. Bu davlatimiz rahbarining Prezidentlik faoliyatining ilk kunlaridan insonning hayot sifatiga bevosita daxldor bo'lgan sog'liqni saqlash sohasi rivojiga katta e'tibor qaratgani samarasidir.

HAYOT SIFATIGA DAXLDOR SOHA

YOKI TIBBIYOTDAGI YANGILANISHLAR EPKINIDAN BAHRAMANDLIK XUSUSIDA MULOHAZA



Inson qadri

Prezidentimiz 2017-yilning 5-yanvarida soha mutaxassislari bilan uchrashib, tizimni takomillashtirish, muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi. Shundan so'ng tibbiyotni xalqqa yaqinlashtirish, elni rozi qilish, xalqimizga sifati tibbiy xizmat ko'rsatish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, salomatlikni asrash va mustahkamlash, umr davomiyligini oshirish kun tartibidagi masalaga aylandi. Sohada katta transformatsiya jarayonlari

boshlandi. Tizimli ishlar eng chekka va olis hududlarga ham yetib bordi. Pirovardida bugun yurtimizning qaysi manzili ni olmaylik, odamlar turtum sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti asta-sekin o'zgarib borayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Xalqimizning tibbiy madaniyati ham yuksalib, zamonaviy tibbiyotdagi ilg'or yutuqlardan bahramand bo'lish, salomatligini yaxshilashni istamoqda.

Davomi 5-betda



30-iyul – Xalqlar do‘stligi kuni

HAMJIHATLIK, TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIK BILAN YURT OBOD BO‘LADI

Gulandom SUBHONOVA,
Respublika tojik milliy-
madaniy markazi raisi

Boshlanishi 1-betda

Qadriyat va urf-odatlar bir-biriga juda o‘xshash bu ikki xalqning birodarligi kecha yoki bugun paydo bo‘lib qolgan yo‘q. Bu yaqinlik qadimdan yonma-yon yashab kelayotgan ikki xalqning uzoq ajdodlaridan meros. Ammo ma‘lum muddat chegaralarga sun‘iy to‘siqlar o‘rnatilib, odamlarning bordi-keldisi cheklandi. Ikki davlatda yashaydigan quda-andalar, do‘stu birodarlar, qavmu qarindoshlar bordi-keldi qilishi qiyinlashdi.

Biroq etni timoqdan ajratib bo‘lmaganidek, ikki xalqni ajratish mumkin emasdi. Bu haqiqatni to‘g‘ri anglaydigan odamlar vaziyatni o‘nglashga intilib yashadi. Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatidagi faoliyatining dastlabki kunlaridanoq qo‘shni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga jiddiy kirishdi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan bundan sakkiz yil muqaddam ikki davlatni bog‘lovchi chegara postlari qayta ochildi. Ikki davlat Prezidentlarining siyosiy irodasi bilan o‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasidagi bordi-keldi munosabatlari yangi bosqichda qayta tiklandi. Bu tarixiy kuni o‘zbek va tojik xalqlari katta shodu xurramlik bilan kutib oldi.

O‘sha kunlarni men hamon yaxshi eslayman. O‘zbekiston - Tojikiston o‘rtasidagi chegaralarning ochilishi necha yillardan buyon bir-birini sog‘ingan qanchadan qancha otabola, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug‘larni diydorga yetkazgan hayajonli damlar hamon ko‘z o‘ngimda. Chegaralar ochilishida bir-birining bag‘riga talpingan odamlarning diydorlashuvdagi sevinchdan ko‘zlarimizga yosh keldi.

Tarixi, kechmishi, taqdiri bir bo‘lgan ikki xalq o‘rtasidagi sun‘iy to‘siqlarning olib tashlanishi

hazrat Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy amal qilgan, asarlarida tarannum etilgan buyuk do‘stlik abadiy ekanining hayotiy isboti bo‘ldi. O‘zaro aloqalarda ulkan o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, 2017-yilda Toshkent — Dushanbe aviagatnovining qayta yo‘lga qo‘yilishi, G‘alaba — Amuzang temir yo‘li tiklanishi, Samarqand — Panjikent xalqaro yo‘li ochilishi, ikki davlat chegarasidagi barcha o‘tkazuv maskanlari ish boshlagani tarixiy voqea bo‘ldi. Ayniqsa, 2018-yili Prezidentimizning Tojikistonga tarixiy tashrifi o‘zbek-tojik xalqlari o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik, birodarlik va o‘zaro strategik sheriklik sohalaridagi munosabatlarda yangi sahifa ochdi.

Navbatdagi tashrifda Emomali Rahmon Shavkat Mirziyoyevni Tojikistonning yuksak mukofoti — I darajali “Zarrintoj” ordeni bilan mukofotladi. Bu davlatimiz rahbarining ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi ulkan xizmatlari e‘tirofidir.



Eng muhimi, har ikkala mamlakatda yashovchi o‘ddiy odamlar bordi-keldi qilishi uchun to‘siqlar olib tashlandi. Yana yaqinlar to‘y-ma‘rakalarni, bayramlarni birga o‘tkazish, diydorlashish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Hozir O‘zbekiston va Tojikiston chegara-bojxona postlari orqali har kuni minglab odamlar o‘tayotir. Bir paytlar xalqlarimiz qon-qarindoshi



Do‘stlik — qudratli kuch. Hamjihatlik, totuvlik, bag‘rikenglik bilan yurt obod bo‘ladi. Ayniqsa, o‘zaro milliy va etnik nizolar, diniy, hududiy kelishmovchiliklar kuchaygan bugungi dunyoni kuch emas, insonlar, millatlar, mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stlik saqlab qolishi o‘z isbotini topib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbarining faqat yon qo‘shnilar emas, global miqyosda o‘zaro ishonchli aloqalarni, hamkorlikni rivojlantirishda uzoqni ko‘zlab yuritayotgan siyosati xalqlarimiz o‘rtasida do‘stlik rishtalari mustahkamlanishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilmoqda.

borligi tufayli zo‘rg‘a bordi-keldi qilardi. Endi istalgan inson sayohat uchun chegaradan bemalol o‘tib-qaytmoqda.

Davlatimiz rahbarining to‘g‘ri va adolatli tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik ko‘prigi qayta tiklandi. Har yili bir marta Markaziy Osiyo

davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvini o‘tkazish an‘anaga aylandi. E‘tirof etish kerak, ushbu uchrashuvlar do‘stlik va ishonchni mustahkamlab, uzoq yillar davomida to‘planib qolgan masalalarni hal etishda va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishda ko‘prik vazifasini bajarmoqda.

Joriy yil 31-mart kuni Tojikiston Respublikasining qadimiy va tarixiy shaharlaridan biri bo‘lgan Xo‘jandda O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston rahbarlari ishtirokida tarixda ilk bor uch tomonlama sammit o‘tkazildi. Bu nafaqat mazkur davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar, balki butun Markaziy Osiyo miqyosidagi integratsiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqishda ulkan ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mamlakatimizda barcha millat va elatlar qatori tojik madaniyatini, milliy va tarixiy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishga ham katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda tojik millatiga mansub 1 million 700 mingdan ziyod yurtdoshimiz istiqomat qilib, yurtimizning iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmoqda.

Biz — o‘zbekistonlik tojiklar o‘zimizni bolalarimiz tug‘ilib, bobolarimiz mangu qo‘nim topgan shu muqaddas zamin farzandlari deb bilamiz. O‘zbekiston esa, hech shubhasiz, muqaddas Vatanimizdir. Millatdoshlarim orasida taniqli olimlar, tadbirkor va fermerlar, o‘qituvchilar, shifokorlar, turli darajadagi rahbarlar bor. Ular ana shu tuyg‘u, Vatan mehri bilan yashayotgani uchun ham bugun katta yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda.

Yurtimizda tojik tilida gazeta va jurnallar chop etilib, teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar e‘fira uzatilmoqda. Qolaversa, 255 ta maktabda ta‘lim tojik tilida olib boriladi. Bir qator oliy o‘quv yurtlarida tojik tilida ta‘lim beradigan fakultetlar va bo‘linmalar faoliyat yuritmoqda.

Yangi O‘zbekistondagi bag‘rikenglik siyosatiga yana bir hayotiy misol, yaqin yillargacha oliy ta‘limdagi tojik guruhlariga kirish uchun tojik tilida test topshirish imkoniyati yo‘q edi. Natijada bilimli bolalar qolib, bilimsizlar turli yo‘llar bilan o‘qishga kirardi. Mamlakatimizdagi islohotlar sabab ushbu masala yechim topdi. Quvonarlisi, o‘lgan yildan boshlab o‘z bilimi bilan talaba bo‘lgan

yuzlab yoshlarimiz o‘qishni tamomlab, o‘z sohalarida faoliyat boshladi. Bu mamlakatimizda turli millat vakillariga nisbatan yaratilayotgan sharoitlarning bir ko‘rinishidir. Yana bir misol, keyingi yillarda tojik millatiga mansub 130 dan ortiq fuqaro yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi. Bu ham O‘zbekistonda barchaga teng sharoit va imkoniyatlar barobar ekanini namoyon etadi.

Bizni yana bir holat doim quvontiradi. Prezidentimiz har bir bayram tabrigida, xalqimizga murojaat yo‘llaganida yoki chiqishlarida hamisha “ko‘p millatli xalqimiz” iborasini ishlatadi. To‘g‘risi, bu mamlakatimizdagi ko‘p millatli xalqimiz doim e‘tiborda ekanidan xursand bo‘ladi. Yana bir jihat, har yili Navro‘z bayramida milliy madaniy markazlar ko‘rgazmalarini davlatimiz rahbari shaxsan ko‘zdan kechirib, markaz raislari va faollar bilan samimiy suhbatlashadi. Muammolarimiz, kelgusidagi rejalarimiz haqida so‘raydi.

Elning obro‘sin, uning moddiy boyligidan ham ko‘proq ilm-ma‘rifat, madaniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hisssasi oshirishiga tarixda ham, bugun ham misollar ko‘p. Shu o‘rinda tojik tilida o‘qitiladigan maktablardan birini misol sifatida keltirib o‘tmoqchiman. Jizzax viloyati Yangiobod tumanining eng chekka hududidagi Chakand qishlog‘i va u yerdagi maktabni faqat O‘zbekistonda emas, qo‘shni Tojikistonda ham yaxshi bilishadi. Aholisi ikki tilda so‘zlashsa-da, qalbi, o‘y-fikri uyg‘un bo‘lgan qishloqdagi 6-umumta‘lim maktabida 130 nafarga yaqin o‘quvchi tojik tilida ta‘lim oladi. Ushbu maktab ko‘plab ilmiy kishilarni tarbiya etgani bois mashhur bo‘lgan.

Keyingi yillarda ushbu qishloqdan yetishib chiqqan sakkiz nafar fan doktori va fan nomzodlari turli ilmiy muassasalarda faoliyat ko‘rsatayotir. Bugun Yangiobodda va qo‘shni tumanlarda chakandlik 40 nafardan ziyod shifokor, yana bir qancha boshqa sohalarning malakali mutaxassislari ishlayotir.

Chakandliklarning qanchalik ilmga chanqoqligini fan olimpiadalari, bilimlar musobaqalarida erishayotgan yutuqlari, har yili oliy maktabga kirayotgan yoshlarning ko‘pligi ham ko‘rsatib turibdi. Hozir ushbu maktabning 40 nafardan ziyod bitiruvchisi turli oliy ta‘lim muassasalarida o‘qiyotir.

Bu chekka hududdagi qishloq maktabi faoliyatidan bir misol. Bunday misollarni boshqa viloyatlardan ham keltirish mumkin. Bu davlatimiz tomonidan boshqa tillarda o‘qiydigan yoshlarning barkamol voyaga yetishlari uchun zarur sharoitlar yaratilayotgani, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari bilan to‘liq ta‘minlanganiga katta e‘tibor qaratilayotgani samarasidir.

Respublika tojik milliy-madaniy markazi va uning viloyat, shahar va tuman bo‘limlari bundan buyon ham asosiy e‘tiborini xalqlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va do‘stlikni mustahkamlashga safarbar etadi.

Darhaqiqat, do‘stlik — qudratli kuch. Hamjihatlik, totuvlik, bag‘rikenglik bilan yurt obod bo‘ladi. Ayniqsa, o‘zaro milliy va etnik nizolar, diniy, hududiy kelishmovchiliklar kuchaygan bugungi dunyoni kuch emas, insonlar, millatlar, mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stlik saqlab qolishi o‘z isbotini topib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbarining faqat yon qo‘shnilar emas, global miqyosda o‘zaro ishonchli aloqalarni, hamkorlikni rivojlantirishda uzoqni ko‘zlab yuritayotgan siyosati xalqlarimiz o‘rtasida do‘stlik rishtalari mustahkamlanishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilmoqda.



Dolzarb mavzu

Moliyaviy intizom, jamiyat resurslari, budget, davlat maqsadli jamg‘armalaridan oqilona va samarali foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshirish Hisob palatasining strategik va kundalik vazifasidir. Albatta, ularning sifatli ijrosi nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki jamiyatning davlatga ishonchi, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi, ijtimoiy majburiyatlarini amalga oshirish va strategik maqsadlarga erishishni ham ifoda etadi.

Hisob palatasining samarali faoliyati, avvalo, budget tushumlari ortishida yaqqol ko‘rinadi. Bu mablag‘lar, birinchi navbatda, ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltiriladi va aholi farovonligi oshishiga xizmat qiladi.

Shu tarzda unga bog‘liq barcha jarayonlar orqali mamlakatning izchil taraqqiyoti ta‘minlanadi. Yangi texnologiyalar va raqamlashtirish Hisob palatasi faoliyatini mustaqil, sifat jihatidan yuqori darajaga olib chiqishi mumkin. Masalan, kosmik zontlash texnologiyalari yordamida joylarda qanday ishlar amalga oshirilayotgani, xususan, kanallar qanday qurilayotgani, yerni lazer texnologiyasi yordamida tekislash ishlarini masofadan turib tahlil qilish mumkin. Shuningdek, raqamli yechimlar kadastr organlari ishini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Dunyo tajribasi ko‘rsatmoqdaki, barcha vazirlik va idoralarni Hisob palatasi bilan bog‘langan, yagona raqamli tizimga integratsiya qilish faqatgina shaffoflikni oshirishni anglatmaydi, balki u aholining hayot sifati va daromadini oshirishga olib boradigan to‘g‘ri yo‘l hamdir.

Bunday tizim budget mablag‘laridan foydalanish samaradorligini real vaqt rejimida

kuzatish, resurslarni tezkorlik bilan ustuvor yo‘nalishlar, xususan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, bandlik sohalariga yo‘naltirish, ijtimoiy yordamning manzilligini kuchaytirish imkonini beradi.

Elektron hujjat aylanishi korxonalarning davlat oldidagi majburiyatlarini bajarishga, bojxona va soliq organlarida ijro intizomini ta‘minlashga, umuman olganda, barcha sohalarda adolati va samarali boshqaruv uchun zamin yaratadi. Bu esa har bir so‘m aholi manfaatlariga xizmat qilishini ta‘minlaydi. Natijada davlatga ishonch ortib, iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi va aholi daromadlarini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Bugun tashqi audit organlarida faqatgina mustaqillik va shaffoflik emas, yuqori texnologik jihozlanganlik holati ham talab etiladi. Dunyoning ko‘plab davlatlarida hisob palatalari o‘z faoliyatida sun‘iy intellekt imkoniyatlarini faol joriy etmoqda. Bunday yondashuv amaliyotda o‘z samarasini bermoqda.

Masalan, Kanada, Buyuk Britaniyada mashinali o‘quv texnologiyalari loyiha va muassasalarning xavf profilini shakllantirish uchun qo‘llaniladi. Bu esa auditorlarga eng zaif yo‘nalishlarga e‘tiborni oshirish imkonini yaratadi. Hindiston Hisob palatasi esa sun‘iy intellektidan shartnomalar matnidagi nomuvofiqliklar va qonunbuzilishlarni tahlil qilishda foydalanadi.

Tizimli islohotlar va tub o‘zgarishlar jarayonida O‘zbekiston uchun Hisob palatasining aniq va samarali faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun mamlakatimizda boshqaruv tizimi isloh qilinib, jamiyat uchun yangi, samarali institutlar yaratilmoqda. Investitsiya dasturlari kengaymoqda. Hududlar manfaatiga e‘tibor kuchaytirilib, fuqarolar ishtirokini ta‘minlovchi mexanizmlar joriy etilmoqda. Mazkur jarayonda budgetga tushayotgan va undan saralayotgan har bir so‘m, albatta, rivojlanish, aholi farovonligi hamda adolatlarni mustahkamlashga yo‘naltirilishi shart.

Bunday sharoitda Hisob palatasi faqat moliyaviy nazorat organi bo‘lib qolmay, samarali ish yuritishga yo‘naltirish vazifasini ham bajarishi bilan ahamiyatlidir. Mablag‘lar oqimining shaffofligini markaziy budgetdan tortib hududiy loyihalargacha ta‘minlaydi. Fuqarolar, biznes va xorijiy hamkorlarning davlat institutlariga ishonchini mustahkamlaydi. Xavf va suiiste‘molchiliklarni aniqlab, ularning oldini olish mexanizmlarini yaratadi. Qonunchilik, budget va investitsiya siyosatini takomillashtirish uchun tahliliy baza shakllantiradi. Ijro hokimiyati organlari va davlat aktivlarini boshqarishda professionalizmini oshirishga ko‘maklashadi.

Hozirgi kunda auditni raqamlashtirish, moliyaviy huquqbuzarliklar va ularning bartaraf etilishi ustidan nazorat, zarur ma‘lumotlardan foydalanish, jamoatchilik va parlament bilan hamkorlikka asoslangan zamonaviy yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu omillar Hisob palatasiga strategik rivojlantirish va barqaror taraqqiyotda proaktiv ishtirokchi bo‘lish imkonini beradi.

Jahondagi global tahdidlar, noaniqlik va oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan o‘zgarishlarga tezkor javob berish zarurati yuzaga kelgan hozirgi davrda



kuchli, mustaqil va professional tashqi audit organi mavjudligi davlatga barqaror rivojlanish yo‘lini saqlash, jamiyat manfaatlarini himoya qilishga ko‘maklashadi.

Bundan tashqari, xalqaro tajriba ko‘rsatmoqdaki, haqiqiy mustaqillik, vakolat va texnik imkoniyatlarga ega bo‘lgan davlatlarning tashqi audit organlari korruptsiyaga qarshi kurashda, xalqaro xarajatlar samaradorligi va milliy dasturlarni amalga oshirishda yuqori natijalarga erishmoqda.

Ochiq davlat boshqaruvi, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillariga sodiqlikni namoyon etayotgan mamlakatimiz uchun Hisob palatasini rivojlantirish nafaqat zamon talabi, balki

fundamental ehtiyoj hamdir. Mazkur institut islohotlardan chetda turmay, aynan shu jarayon markazida bo‘lib, mamlakat rivoji va fuqarolar hayotini yaxshilash yo‘lida har bir resursning ochiq, adolati va samarali ishlatilishini ta‘minlashi kerak.

Davlatimiz rahbari 23-iyul kuni Hisob palatasi faoliyatini hamda ijro tizimini takomillashtirish chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi.

Ta‘kidlanganidek, O‘zbekiston Prezidentining 2024-yil 10-iyuldgai “Budget mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, Hisob palatasining ish uslubi

o‘zgardi, vakolatlari kengaytirildi. Eskicha tekshiruvlardan voz kechilib, moliyaviy, muvofiqlik, samaradorlik va strategik audit tizimi joriy qilindi. Endi bu palata faqat nazorat qiluvchi emas, balki budget intizomiga ko‘maklashuvchi hamkor idoradir.

— Taqdimotda Prezidentimizga Hisob palatasi tomonidan joriy yilning olti oyida qilingan ishlar va yil yakuniga qadar bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalar borasida axborot berildi, — deydi Hisob palatasi raisining birinchi o‘rinbosari Mehridin Abdullayev. — Taqdimotda asosiy e‘tibor davlat budgetidan ajratilayotgan mablag‘ning samarali ishlatilishiga qaratildi. Bu mablag‘lar sarflanishida faqatgina tekshirish, nazoratni kuchaytirish emas, balki e‘tiborni moliyaviy intizom buzilishining oldini olishga qaratish kerakligi qayd etildi.

Hisob palatasi tomonidan bu yil 6 oyda o‘tkazilgan audit tadbirlari natijasida 5 trillion 600 milliard so‘m samarasiz budget xarajatlari qisqartirildi, budgetga 5 trillion so‘m qo‘shimcha tushum imkoniyati aniqlandi.

Iqtisodiyotimiz izchil o‘tib bormoqda. Bu, o‘z navbatida, moliyaviy nazorat ko‘lami va ish hajmini ham oshiradi. Buni qamrab olishning samarali yo‘li — raqamlashtirish. Shu maqsadda “Masofaviy audit” axborot tizimi ishga tushirilgan. Natijada ayni paytgacha u orqali 4 trillion so‘mlik kamchiliklar bartaraf etildi.

Taqdimotda endi tizimga sun‘iy intellektni joriy qilib, kamchiliklarni keltirib chiqarayotgan omillarni bartaraf etish vazifasi qo‘yildi.

Joriy yil 16-iyun kuni islohotlar natijadorligi tahlili bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida Hisob palatasiga “Xalq nazorati” platformasini barcha hududlarda yo‘lga qo‘yish topshirilgan edi. Bu tizim orqali qurilish, infratuzilma, kommunal xizmatlar, energiya ta‘minoti, transport, yo‘l, ekologiya kabi sohalardagi muammolar bo‘yicha xabar beriladi. Ularni hal qilish uchun portalga barcha vazirlik, idora va hokimliklar ulanadi.

Hozirgi kunda dasturni sun‘iy intellekt asosida takomillashtirish, vertikal nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish, Call-markazlar tashkil etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun

BOSH MAQSAD — MILLIY O‘ZLIGIMIZNI ANGLASH VA TARG‘IB ETISH

Shuhrat HAYITOV,
filologiya fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

Bugun mazkur markazlarda bajarilayotgan fundamental tadqiqotlar nafaqat yurtimizda, balki xalqaro doirada ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Bu markazlar dunyoning yuzdan ortiq davlati va nufuzli ilmiy muassasasi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yg‘an.

Bunday samarali aloqalar tufayli yurtimizga tegishli, bir paytlar turli sabablarga ko‘ra xorijga olib ketilgan minglab tarixiy merosimiz o‘z vataniga qaytarilmoqda. Jahonning nufuzli muzeylari va fondlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, ularda O‘zbekistonning boy madaniy merosi keng namoyish etilayotir.

2022-yilda Fransiyang mashhur Luvr muzeyida o‘tkazilgan milliy meros ko‘rgazmasi buning yaqqol isbotidir. Besh oy mobaynida davom etgan mazkur ko‘rgazma 260 mingdan ziyod tomoshabinni jalb qildi. Ko‘rgazmada yurtimiz muzeylarida saqlanayotgan 138 ta qimmatli eksponat namoyish etildi. Ular orasida kulollik, yog‘och, metall, devoriy san‘at va qog‘ozga oid 70 dan ortiq nodir buyum restavratsiya qilinib, ilk bor xalqaro maydonga olib chiqildi.



Yangi O‘zbekiston tarixi islohotlar va yutuqlar tarixi bo‘lib, uning ajralmas bir qismi milliy o‘zlikni anglash, milliy meros va ma‘naviyatni yuksaltirishga qaratilgan ulkan ishlaridir. Millat tarixi va madaniyatga chuqur hurmat faqat ilmiy tadqiqot emas, balki yangi avlod ongini shakllantirish, kelajak taraqqiyotiga qo‘yilgan mustahkam poydevor hisoblanadi.

Shu bois, bugungi kunda tarixga e‘tibor kelajakka investitsiya sifatida qaralmoqda. Yangi O‘zbekistonda tarixiy xotira, milliy meros va ma‘naviy qadriyatlar davlat siyosati darajasida e‘zozlanmoqda. Bu esa, shubhasiz, milliy ruhini mustahkamlaydi, xalqning o‘zligi va qadriyatini yanada yuksaltirib, yangi taraqqiyot bosqichiga yo‘l ochadi.

Mustaqillik monumenti, G‘alaba bog‘i, Adiblar xiyoboni kabi ma‘naviy maskanlarda shoir va yozuvchilarning haykal va byustlari o‘rnatilib, ularning xotirasiga munosib hurmat ko‘rsatildi. Bu maskanlar xalqimiz, ayniqsa, yoshlar uchun ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkaziladigan mazmunli makonga aylandi.

2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjondagi Turkiy tili davlatlar hamkorlik kengashi sammitida Prezidentimiz “Turkiy adabiyot durdonalari” nomli 100 jildli to‘plamni har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi. Ushbu tashabbus asosida ilk bor O‘zbekistonda mazkur to‘plam nashr etildi va turkiy dunyo kutubxonalaridan munosib o‘rin egalladi. Bu orqali turkiy xalqlar adabiyotining ma‘naviy merosi yanada yaqinlashdi, qalblar va xalqlar o‘rtasida ko‘priklar barpo etildi.

Vatanimizning uch ming yillikdan ziyod tarixini chuqur va xolis o‘rganish, uni xalqimiz va jahon jamoatchiligiga keng targ‘ib etish maqsadida ham qaratilgan qilingi. Prezidentimiz qarori bilan 2019-yil 1-sentabrdan faoliyatini boshlagan “O‘zbekiston tarixi” telekanali bu borada muhim vazifani bajarib kelmoqda. Bugun u ko‘plab mamlakatlarda tomoshabinlar qalbidan o‘rin olgan televideniye platformasiga aylanmoqda.

Shu bilan birga, kino san‘ati orqali tarix va

ma‘rifatni targ‘ib etishga ham jiddiy e‘tibor qaratildi. “Xalq yuragi” turkumi ostida 24 ta hujjatli film yaratildi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy, Abdulla Qahhor, Zulfiya, Muhammad Yusuf kabi buyuk adiblarimiz hayoti va ijodi haqidagi ushbu filmlar xalqimiz qalbidan chuqur joy oldi.

2024-yil 16-may kuni davlatimiz rahbarining Kinochilar uyiga tashrifi, kino sohasi vakillari bilan uchrashuvi, O‘zbekiston kino san‘ati muzeyini ko‘zdan kechirishi kinematografiyadagi yana bir muhim bosqichni boshlab berdi. Unda 2024-2027-yillarga mo‘ljallangan “Tirik tarix” strategik dasturi taqdim qilindi. Bu loyiha vatanimizning eng qadimgi tarixidan to‘yaqin o‘tmishgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan, milliy g‘ururi oshirish, tarixni xolis aks ettirishni maqsad qilgan yirik medialoyihadir.

Prezidentimizning 2024-yil 5-iyundagi “Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag‘ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ushbu loyihaga qonuniy va moliyaviy poydevor bo‘ldi. Bu qaror orqali kinematografiya yangi bosqichga ko‘tarildi, milliy davlatchilgimiz va tarixiy shaxslarimiz hayotini ekran orqali keng namoyon etish imkoniyati yaratildi.

“Tirik tarix” dasturi doirasida ko‘plab badiiy va badiiy-publististik filmlar ishlanmoqda. Ular orasida “Bahodir Yalang‘o‘sh”, “Ajiniyoz”, “Maxtumquli Firoq‘iy” kabi filmlar xalqaro kinofestivallarda yuqori baholarga sazovor bo‘ldi. Shu yil oxiriga qadar buyuk sarkarda Amir Temurga bag‘ishlangan “Ulug‘ Amir va Donna Mariya” badiiy filmi hamda Ikkinchi jahon urushi qahramoni Mamadali Topoldiyev haqidagi film tomoshabinlar e‘tiboriga havola etilishi rejalashtirilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, yangi O‘zbekiston davrida adabiyot, tarix va kino sohalariadagi keng qamrovli islohotlar milliy ma‘naviyatni yuksaltirish, xalqning o‘zligini anglash, tarixiy xotirani tiklash va uni dunyoga tanitishda muhim qadamdir. Chunki millatni millat



O‘lkamizning Xorazmiy, Farg‘oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Marg‘inoniy, Zamahshariy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ali Qushchi kabi farzandlarining ilmiy va ma‘rifiy merosi keng yoritiladi. Shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband kabi islom ulomalarining ma‘naviyat taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hisssasi taqdim etiladi.

O‘tmishda ilm-fan va ma‘rifat taraqqiyotiga hissa qo‘shgan Bibixonim, Gavharshodbegim, Xonzodabegim, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin kabi alloma xotin-qizlarimizga alohida bo‘limlar ajratilgani ayni muddaodir.

Markazda zamonaviy multimedia vositalari, interaktiv suratlar, 3D maketlar, videokspozitsiyalar orqali ko‘rgazmalar tashkil etiladi. “Vaqt devori”, virtual sayohatlar, axborot-resurs markazi kabi yechimlar bu yerga tashrif buyurgan har bir insonni uzoq tarix safariga yetaklaydi.

Bundan tashqari, markazda boy muzey va kutubxona, xalqaro anjumanlar zali, arxiv, qo‘lyozmalar fondi, ilmiy akademiya ham faoliyat yuritadi. Ularning fondlarini nafaqat yurtimizdagi, balki dunyodagi ko‘plab muzey va arxivlardan keltirilgan nodir asarlar bilan boyitish davom etmoqda. 300 o‘rinli konferensiya zali va ilmiy tadqiqot uchun maxsus laboratoriyalar ham tashkil qilinmoqda.

Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, bu markaz “o‘zimizning me‘moriy tajribamiz, yangi O‘zbekistonning bunyodkorlik maktabi va ilmiy-ma‘naviy salohiyatimiz ramzi sifatida tarixga kiradi”. Bu yerdagi har bir bo‘lim, har bir ekspozitsiya, har bir tarixiy asar bizni o‘zligimiz, kelib chiqishimiz, ota-bobalarimizning buyuk merosi bilan yanada yaqinroq tanishtiradi.

Islom sivilizatsiyasi markazi ming yillar avval asos solingan buyuk sivilizatsiyalar davomiyligining, yangi milliy uyg‘onish va



ma‘naviy tiklanishning amaldagi ifodasidir.

Yangi O‘zbekiston zaminida barpo etilayotgan har bir obida xalqimizning ma‘naviy uyg‘onishi, ilmiy merosimizga hurmat va e‘tibor ifoda etadi. Bugungi kunda Samarqand viloyatining Payarqi tumanida qaytadan bunyod etilayotgan Imom Buxoriy majmuasi bu yo‘nalishdagi eng muhtasham inshootlardan biridir.

Tubdan qayta barpo etilayotgan Imom Buxoriy majmuasi umumiy 44 gektar maydonni qamrab olgan. Majmuadagi 10 ming kishiga mo‘ljallangan masjid, 75 metrli to‘rtta minor va mahobatli maqbara uning ulug‘vorligini yanada oshirgan. Shu bilan birga, bu yerda muzey, ayvonlar, ma‘muriy va xizmat ko‘rsatish binolari, xiyobonlar, to‘rtta taboratxona va ikki ming o‘rinli yigirmadan ortiq mehmonxona qurilmoqda.

So‘nggi yillarda yurtimizda islom ma‘rifatiga xos ilm-fan va diniy merosga yuksak e‘tibor Imom Abu Mansur Moturidiy shaxsi misolida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi bu yo‘nalishdagi muhim ilmiy maydonga aylandi.

Markaz Imom Moturidiy va izdoshlarining aqida, kalom va ma‘rifat sohasidagi ulkan merosini chuqur o‘rganish, asarlarini tarjima qilish, xalqchil risolalar, ensiklopediya va kataloglar tayyorlash, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish vazifalarini amalga oshirmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 14-martdagi “Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori esa bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. Qarorda Imom Moturidiy merosini chuqur tadqiq etish, asarlarini keng jamoatchilikka yetkazish, xalqaro miqyosda ham hamkorlikni mustahkamlash kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Shu kunlarda “Tirik tarix” dasturi doirasida “Imom Moturidiy” badiiy filmi suratga olinayotgani bu ulug‘ zotning shaxsiyati va ta‘limotiga yuksak e‘tiborning yaqqol isbotidir.

Bir so‘z bilan aytganda, Samarqandda barpo etilayotgan Imom Buxoriy va Imom Moturidiy majmualari xalqimizning yuksak ma‘naviy madaniyati, ilgama muhabbati, ajdodlar merosiga sadoqat va shu orqali dunyo tamadduniga qo‘shilayotgan beqiyos hissasining yorqin ifodasidir.

Markaz faoliyati xalqaro miqyosda ham yuqori baholanmoqda. Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Malayziya, Misr, AQSH, Germaniya, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston kabi 20 ga yaqin davlatdagi 47 ta ilmiy muassasa, turdosh markaz va universitet bilan hamkorlik memorandumlari imzolangan.

Markazning qo‘lyozmalar fondida 644 ta qo‘lyozma, 856 ta toshbosma kitob va 114 ta tarixiy hujjat, jami 1614 manba jamlangan. Ular orasida jismoniy shaxslardan xarid qilingan va hadya etilgan nodir asarlar mavjud. Turkiya va Buyuk Britaniya manbalaridan olib kelingan 50 ga yaqin elektron qo‘lyozma nusxalari ham markaz fondini boyitmoqda.

Shuningdek, Imom Buxoriy asarlarining 41 davlatdagi 256 fondga saqlanayotgan 3300 ta



nodir nusxasi aniqlanib, reyestr tuzildi. “Sahihi Buxoriy” qo‘lyozmasining 3161 ta elektron nusxasi jamlandi. 533 ta qo‘lyozmaning kataloglari chop etildi, 503 ta kitobning 173 ming varag‘i raqamlashtirildi. 678 ta qo‘lyozma annotatsiyasi www.bukhari.uz saytiga joylashtirildi, 392 ta kitob sahifasi tozalani, konservatsiya qilindi.

Yangi O‘zbekiston davrining yana bir muhim xususiyati jadidlar va qatag‘on qurbonlari nomini tiklash, merosini o‘rganish va xalq xotirasida abadiylashtirishga bo‘lgan yondashuvdir. XIX-XX asrlar tarixiga yangicha nigoh bilan qarash, noma‘lum sahifalarni ochish va inson qadrlini ulug‘lash masalasiga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda.

1917-yildagi oktyabr to‘ntarishidan boshlab SSSR parchalanguniga qadar siyosiy qatag‘on sovet jamiyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Ayniqsa, 1930-1940-yillarda O‘zbekistonda qattiq tazyiq, nohaq ayblov va jazolar yuz minglab inson tadqiriga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ushbu davr bamosiloli kafanga o‘ralgandek, o‘rganish uchun yopiq va xatari mavzu hisoblanardi.

Bugun esa ana shu qora sahifalar ochila boshladi. Siyosiy qatag‘on tarixi tadqiq etilib, fojiali oqibatlarini xalqimizga yetkazish, begunoh qurbonlar nomini oqlash, hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

2017-yil 31-avgustda Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni munosabati bilan davlatimiz rahbarining muzeyga tashrifi chog‘ida bildirgan taklif va tavsiyalari bu yo‘nalishda yangi bosqichni boshlab berdi. Shu asosda 2017-yil 22-noyabrda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori qabul qilindi va muzey Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o‘tkazildi.

Muzey 10 ta bo‘limdan iborat bo‘lib,

tariximizdagi siyosiy qatag‘on davrini va bugungi o‘zgarishlarni to‘laqlonli aks ettirib kelmoqda. Agar 2017-yilda muzeyda 1000 dan ortiq material mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bugun ularning soni 17 mingdan oshgan. Bu raqam yil sayin ortib bormoqda.

Shu yillar davomida Qoraqalpog‘iston, viloyatlar va Toshkent shahrida ham qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylari tashkil etildi. Ushbu muzeylar mahalliy darajadagi qurbonlar hayoti va faoliyatini o‘rganish, xalqqa yetkazish, targ‘ibot ishlarini samarali yo‘lga qo‘yishda muhim o‘rin tutmoqda. Ular asosida kitob-albomlar, monografiyalar va fundamental tadqiqotlar yaratildi.

Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, 1937-1953-yillar oralig‘ida 100 mingdan ziyod yurtdoshimiz siyosiy qatag‘on qurboniga aylangan. Ulardan 13 ming nafari otib tashlangan, minglab kishilar nohaq qamoqqa olingan, quloq qilingan va badarg‘a etilgan.

Shuningdek, 1980-yillarda ham minglab fuqarolar soxta “paxta ishi” va “o‘zbek ishi” deb nomlangan kompaniyalar qurboni bo‘ldi. Respublika bo‘ylab 40 mingga yaqin kishi tergov qilindi, 5 ming nafari jinoyi javobgarlikka tortildi. Bugungi kunda tarixchilar, arxivchilar va olimlar ushbu davr haqidagi yangi hujjat va ma‘lumotlarni faol ravishda to‘plamoqda. Qoraqalpog‘iston, viloyatlar va poytaxt bo‘yicha tuzilgan “Xotira” kitoblariga 40 mingga yaqin qatag‘on qurboni haqida ma‘lumot kiritildi.

Ulug‘ jadid Mahmudxo‘ja Behbudiy bir asr muqaddam bunday degan edi: “Maorif yo‘lida ishlating‘on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! O‘rtadan nifoqni ko‘taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymangizlar! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar!”.

Bu satrlar bugungi kun uchun ham aniq dastur, yo‘llanma sifatida xizmat qilmoqda. Zero, vatan taraqqiyoti, xalq farovonligi va milliy mustaqillikning poydevori ta‘lim va ma‘rifat ekani azaldan ravshan haqiqat bo‘lib kelgan.

Taraqqiyot strategiyasida buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish borasida belgilangan maqsad bugungi ma‘naviy

siyosatimizning ustuvor yo‘nalishidir. Shu maqsadda xalqimizga mansub allomalar asarlarining xalqchil tarjimalari nashr etilmoqda, ilmiy va ommabop risolalar tayyorlanmoqda.

Bugun mahallalarda “Ajdodlar merosi — ibrat va tarbiya maktabi” shiori ostida o‘tkazilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar orqali yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, tarixga hurmat va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

“Temur tuzuklari bilimdoni”, “Jaloliddin izdoshlari” kabi harbiy-vatanparvarlik loyihalar orqali ham milliy tariximiz, ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan jasorat va fidoyilik an‘analari yosh avlod ongiga singdirib borilmoqda.

Xalqning ma‘naviy salohiyatini belgilab beruvchi eng muhim mezonlardan biri kitobxonlik madaniyatidir. Bugungi kunda jadidlar merosini targ‘ib etish maqsadida “Jadidlar”, “Allomalar” ruhnalari ostida qator avtobiografik, falsafiy va qomusiy risolalar nashr etilaypti. Axborot-resurs markazlari ushbu asarlar bilan boyitilmoqda. Yoshlar uchun mo‘ljallangan ana shunday go‘zal nashrlardan biri “Buyuk allomalar haqida 100 ta fakt” nomli sakkiz tilda chop etilgan kitoblar majmuasidir. Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti va O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali hamkorligida tayyorlangan mazkur kitoblar shu kunlarda yurtimizdagi mavjud 10 mingdan ziyod maktabga bepul tarqatilmoqda. Bu esa ma‘rifatparvarlik g‘oyalarni jamiyatda mustahkam o‘rin egallashini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Gapning indalosini aytganda, millat taqdiriga befarq bo‘lmaslik, ta‘lim va tarbiya masalasini eng muhim ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash, xalqimizni bilimli va faol fuqarolarga aylantirish bugungi ma‘naviy siyosatimiz markazida turibdi.



Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot oldidan

QO‘G‘OZBOZLIKDAN QUTULGAN ISHBILARMON

VAQTINI BIZNESINI

RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRYAPTI



Hammasi elektron

Boshlanishi 1-betda

— Tadbirkorlardan olinadigan ana shunday hisobotlar orqali biznes muhitidagi o‘zgarishlar, faoliyatining ko‘lami va samaradorligi haqida aniq xulosa chiqarish imkoni paydo bo‘ladi, — deydi Milliy statistika qo‘mitasi matbuot xizmati rahbari Usmon Abdurasulov. — Bunday hisobotlar sifatli va o‘z vaqtida taqdim etilishi nafaqat statistika organlari, balki davlat boshqaruvi tizimi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatiga doir statistik hisobotlarni belgilangan shakl va muddatlarda taqdim etishi “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonun hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanadi. Bugungi kunda tadbirkorlar oylik, choraklik va yillik hisobot topshiradi. Har bir hisobotda ularning faoliyat turi, xodimlar soni, tovar aylanmasi, moliyaviy ko‘rsatkichlari hamda boshqa muhim ma‘lumotlar qamrab olinadi.

Ammo bu jarayonlar yildan yilga soddalashtirib borilyapti. Davlatimiz rahbarining har yili avgust oyida an‘anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlarida bu yo‘nalishda ham ko‘plab takliflar bildirilishiga guvoh bo‘lamiz. Ana shu takliflar asosida aniq choralar ko‘rilib, hisobotlarni topshirish bilan bog‘liq yangilanishlar amaliyotga joriy etib kelinmoqda.

— Tadbirkorlar uchun statistik hisobotlarni topshirish jarayonlarini soddalashtirish bo‘yicha qator yengilliklar yaratilmoqda, — deydi Milliy statistika qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i Ma‘mur Satimov. — Jumladan, Prezidentimizning 2025-yil 24-fevraldagi farmoniga asosan, xodimlari 5 nafardan kam va aylanmasi BHMning 2000 baravarigacha bo‘lgan kichik tadbirkorlik subyektlari hisobotlarni endi har yili emas, balki 3 yilda bir marotaba taqdim etishi belgilandi. Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan ham bu borada bir qancha qulayliklar yaratilgan. Masalan, hisobot davrida respondentlarga amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida tizimli ravishda onlayn muloqotlar tashkil etib kelinmoqda. Ularni qiynagan savollarga javob berish uchun call-markaz ishlayapti. Ijtimoiy videoqo‘llamalar sahifalarga barcha jarayonlarni o‘zida aks ettirgan videoqo‘llamalar joylashtirilgan. Bu kabi imkoniyatlar hisobot yukini kamaytirish, ma‘lumotlarni aniq va o‘z vaqtida taqdim etishga xizmat qilmoqda.

Bu amaliyot xalqaro maydonda ham mavjud. Ya‘ni jahonning rivojlangan mamlakatlari, jumladan, AQSH, Kanada hamda Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlarda tadbirkorlik subyektlari statistika organlariga hisobot topshirishi qat‘iy belgilangan. Ushbu tizim real iqtisodiy holatni kuzatish, aniq statistikani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ma‘lumotlar jahon maydonida biror davlat haqidagi umumiy tushuncha shakllanishiga ham xizmat qiladi. O‘zbekiston bu borada boshqa mamlakatlarga nisbatan jadal rivojlanayotganini kuzatish mumkin.

Bugungi kunda rasmiy statistika nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro miqyosda ham asosiy ma‘lumot manbai sifatida e‘tirof etilmoqda, — deydi Milliy statistika qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i Ulug‘bek Noipov. — Tadbirkorlik subyektlaridan hisobotlar va kuzatuvlar orqali olinadigan ma‘lumotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji, iqtisodiyotdagi tendensiyalar hamda bozordagi o‘zgarishlar dinamikasini aniq baholashda muhim o‘rin tutadi. Xalqaro amaliyotda ushbu ma‘lumotlar xorijiy sarmoyadorlar uchun investitsiya qarorlarini qabul qilishda asosiy manbadir. Shu bilan birga, ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatning xalqaro reytinglardagi o‘mini belgilashda ham katta rol o‘ynaydi.



Valijon HAMROYEV, “Bedis tekstil” MCHJ bosh hisobchisi:

— 2008-yildan buyon “Betlis tekstil” MCHJ korxonasida bosh hisobchi bo‘lib ishlayman. Ilgarilar statistika idoralarga qog‘oz shaklida hisobotlarni shaxsan olib borishimizga to‘g‘ri kelardi. Ba‘zan arzimagan xatolik tufayli hisobot qabul qilinmas, yana ish joyimizga qaytib, tuzatish kiritib, hisobotni qayta topshirardik. Bu jarayon bir necha kun vaqtimizni olardi. Bugungi kunda esa zamonaviy elektron tizimlar tufayli ish joyimizni tark etmasdan turib hisobotlarni onlayn tarzda yuborish imkoniyati yaratilgan. “eStat 4.0” platformasi orqali istalgan joyda va istalgan vaqtda hisobotlarni elektron yuborish mumkinligi katta qulaylikdir.

Umuman, har bir biznes o‘z faoliyatini baholash uchun raqamlarga tayanadi. Raqamlar aniq bo‘lishi esa eng muhim vazifalardan biri. Qolaversa, raqamlarga qarab faoliyatni baholash ancha oson. Istalgan tadbirkorlik subyekti hisobotlardagi ma‘lumotlar orqali daromad va xarajatlarni, foyda va zarar, ishchi kuchi samaradorligi kabi ko‘rsatkichlarini kuzatib boradi. Bu esa to‘g‘ri boshqaruv va strategik rejalashtirish uchun asos vazifasini o‘taydi.

Mavjuda BAHRIDDINOVA, “Halol sut agro” MCHJ hisobchisi:

— Hisobotlarni qayd etish doim murakkab va uzoq vaqt oladigan jarayon bo‘lib kelgan. Buni hisobchilar yaxshi biladi. Ammo boshqa sohalar qatori bu yo‘nalishda ham raqamlashtirish keng joriy etilishi nafaqat ishni yengillashtirish, balki aniqlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Hozir “eStat 4.0” tizimida hisobot to‘ldirish jarayoni yanada soddalashtirilgan. Platformaga kirgan zahotiy qorxonaga oid ma‘lumotlar avtomatik ravishda shakllanadi. Tizimning avvalgi versiyalarida bu imkoniyat mavjud emasdi va ushbu ma‘lumotlarni har safar qo‘lda kiritish talab etilardi. Hisobot to‘ldirish jarayonida biror xatolikka yo‘l qo‘ylsa, mantiqiy nazorat funksiyasi ishga tushadi. Bu funksiya orqali aniq qaysi satrda va qaysi raqamda xato mavjudligi ko‘rsatiladi. Shu tarzda hisobotlarimizni xatolardan xoli qilish imkoniga ham egamiz.

Sun‘iy intellekt maslahat beradi

Raqamlashtirishning qulayliklaridan yana biri, yaratilgan axborot tizimi doimiy yangilanib, qo‘shimcha xizmatlar bilan boyitib borilaveradi. Gap shundaki, bugungi zamonaviy texnologiyalarning talabi shu — elektron vazifalarni doimiy yangilab borish kerak. Qolaversa, hozir sun‘iy intellekt texnologiyalari har sohaga kirib borib, axborotlashtirish jarayonlarida faol qo‘llanilyapti.

Hisobotlarni elektron yuritish jarayonlari ham bundan xoli emas. Davlatimiz rahbarining tegishli farmoniga ko‘ra, hisobot jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchilik va muammolarning oldini olish maqsadida “Maslahatchi” interaktiv xizmati yo‘lga qo‘yildi.


— Bu xizmat tadbirkorlik subyektlariga statistik hisobotlarni shakllantirish, topshirish tartibi va talablari bo‘yicha avtomatik tavsiyalar berish imkonini yaratadi, — deydi Milliy statistika qo‘mitasi matbuot xizmati rahbari Usmon Abdurasulov. — Tizimda sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanilgan holda “Maslahatchi” moduli joriy etilmoqda. Ushbu modul hisobot topshirishdagi mavjud murakkabliklarni yengillashtirishga xizmat qiladi. Xususan, respondentlar turli yo‘riqnomalar va hujjatlar bilan tanishib chiqish o‘rniga savol berish orqali sun‘iy intellektidan tez va aniq javob olishi, shu orqali zarur maslahatlardan foydalanishi mumkin bo‘ladi. Modul hisobotlarni to‘ldirish jarayonida yordamchi vosita sifatida faoliyat yuritadi.

Ana shunday zamonaviy elektron xizmatlar tufayli tadbirkorlik subyektlarining hisobot topshirish jarayonlari ancha qulay va samarali ishga aylanadi. Taqdim etilayotgan hisobotlarning aniqligi va to‘g‘riligi darajasi oshadi. Kelgusida esa hisobotlarni tekshirish jarayonlariga ham sun‘iy intellekt imkoniyatlarini joriy etish rejalashtirilmoqda.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan statistik hisobotlar belgilangan shakl va muddatlarda taqdim etilishi davlatning iqtisodiy jarayonlarni to‘g‘ri boshqarishi va xolis baholashida muhim vositadir. Taqdim etilgan hisobotlar asosida iqtisodiyotdagi umumiy holat, soha va hududlar kesimidagi o‘zgarishlar, tovar aylanmasi, ish o‘rinlari dinamikasi, investitsiya faoliyati kabi ko‘plab ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Bu, o‘z navbatida, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yangi imtiyozlar, soliq va moliyaviy yengilliklar, infratuzilmaiy dasturlar hamda boshqa strategik chora-tadbirlarni manzilli va asosli belgilash imkonini beradi. Jamiyatdagi real iqtisodiy muhit, biznes faolligi va tadbirkorlik sektoridagi tendensiyalar haqida aniq va ishonchli tasavvur shakllanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Asosiysi, hisobotlarni topshirishdagi qulaylik, zamonaviy yechimlar tadbirkorning har daqiqasi qadrlil bo‘lgan vaqtini tejab, ish samaradorligini oshiradi. Ishbilarmonlar endi qog‘ozbozlik bilan shug‘ullanish o‘rniga o‘z biznesini rivojlantirishga ko‘proq e‘tibor qaratadi.

Iroda TOSHMATOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Islohotlar samarasi

Qoraqalpog‘istonlik yosh tadbirkor, “Biogumus” fermer xo‘jaligi rahbari Sherzod Niyozimbetovni nafaqat Nukusda, balki butun O‘zbekistonda yaxshi tanishadi. U 2018-yildan beri organik pomidor yetishtirib, quyoshda quritib, qadoqlab, Italiya, Fransiya, Isroilga eksport qilib kelmog‘da. Ikki yuzga yaqin ish o‘rni yaratgan bu korxona 2022-yilda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan “Yilning eng yaxshi start-up loyihasi” nominatsiyasiga sazovor bo‘lgan edi.

“Biogumus” fermer xo‘jaligi “Quyoshda quritilgan ekologik toza organik pomidorlar tayyorlash va eksportini kengaytirish” loyihasini muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmog‘da. Loyiha uchun 320 million so‘m yo‘naltirilgan bo‘lib, 2022-yilda ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida 5,7 milliard so‘m investitsiya jalb qilindi. Natijada 300 tonna sig‘imdagi zamonaviy muzlatkichli omborxona va qadoqlash uskunalari o‘rnatildi.

Aslida, Nukus tumani Nukus shahri aholisini meva-sabzavot bilan ta‘minlash maqsadida tashkil etilgan. Bugun tumaning bog‘bon va dehqonlari bu vazifani uddalab, yetishtirgan mahsulotlarini xorijga ham eksport qilmoqda.

Tumandagi “Qudekov Jadiger” mas‘uliyati cheklangan jamiyati qovun va tarvuz yetishtirish bo‘yicha ilg‘or xo‘jaliklardan biri. Bu yil xo‘jalik 10 gektar maydonda qovun va tarvuz yetishtirib, yuqori hosildorlikka erishdi. Tuman fermerlari bozorga birinчилardan bo‘lib mahsulot chiqardi. Ularining mehnati

natijasida hosilning 100 tonnasi Qozog‘istonga eksport qilindi. Bu nafaqat xo‘jalikning, balki butun Qoraqalpog‘istonning iqtisodiy rivojiga qo‘shgan hissasidir.

Ayni paytda dalalarda hosil yig‘imi qizg‘in davom etmoqda. Bu xo‘jalik faqat qovun va tarvuz bilan cheklanib qolmagan. 13 gektarda olma va nok, 7 gektarda uzum parvarishlanmoqda. Bu mevalar ham har yili Qozog‘iston va Rossiyaga eksport qilinadi. Bu ularning mahsulotlari sifatli va xalqaro bozorda raqobatbardosh ekanini ko‘rsatadi.

Tumandagi Taqirko‘l qishlog‘ida joylashgan “Diana Mardana” fermer xo‘jaligi 2005-yilda Omongul Allamberganova tomonidan tashkil etilgan. Mazkur xo‘jalikning 10 gektari bog‘ qilingan, bug‘doy va poliz ekinlari yetishtiriladi. Pillakorlarga ko‘maklashish maqsadida 3 gektar tuzor tashkil etilgan. Qovun esa Qozog‘istonga eksport qilinadi. Xo‘jalikda 15 kishi doimiy, yana 10-15 kishi mavsumiy ish bilan ta‘minlangan. Nukus tumanidagi Don va sholi ilmiy ishlab

chiqarish birlashmasining dalalariga sholini tomchilatib sug‘orish bo‘yicha innovatsion loyiha amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida 5 gektar maydonda sholini tomchilatib sug‘orish Isroil va Germaniyaning ilg‘or texnologiyalari asosida tajriba sifatida sinovdan o‘tkazilmoqda.

Loyiha natijasida suv tejovchi texnologiyalar asosida sholi yetishtirish bo‘yicha ishlanmalar tayyorlanib, kelgusida tajriba maydoni kengaytiriladi. Loyiha Qoraqalpog‘istonda sholi yetishtirishda yangi texnologiyalar joriy etilib, suvdan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

“Daladan — dasturxonga” tamoyili amalda

Omonboy Rajabov agroteknik tadbirlarni izchillik ila sifatli bajarib kelayotgan tajribali dehqonlardan. Ayniqsa, chilla kirgach, agroteknik ishlar o‘z vaqtida sifatli bajarilmasa, ko‘zlangan maqsadga erishish qiyin. Shuning



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



uchun tajribali dehqon harorat juda yuqori bo‘lgan kezlarda ham dala yumushlarini ortga surib, “kunning tafti pasaysin”, demaydi.

— 2024-yilni qishloq xo‘jaligining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha muvaffaqiyatli

yakunladik. Fermer xo‘jaligimizga tegishli yer 26 nafar ijarachi-dehqonga bo‘lib berilgan, — deydi Amudaryo tumanining “Xizr eli” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi “Rajabov Omonboy” fermer xo‘jaligi rahbari Omonboy

YERGA MEHR BERIB, ELGA BARAKA ULASHAYOTGANLAR

QORAQALPOG‘ISTONLIK DEHQONLAR MAHSULOTLARINI EKSPORT QILMOQDA

Rajabov. — Joriy yil erta bahorda 40 gektarga “Sulton” navli tepshibar chigit ekan edik. Ayni paytda paxta hosiliga kirdi. Xo‘jalik ijarachi-dehqonlarining o‘zaro ahilligi, agroteknik tadbirlar hamjihatlikda amalga oshirilishi natijasida g‘o‘za baravj rivojlandi. Harorat eng yuqori bo‘lgan kunlari xo‘jalik ishchilari dala ishlarini ertalabki va kechki salqinda bajardi. Bu hosilni saqlab qolish uchun juda muhim. Agar suv berilmasa, gul to‘kilishni boshlaydi. Issiq vaqtda sug‘orilsa, jo‘yaklarda suv uzoq vaqt turib qoladi. Oqibatda suv isib, hosilni nobud qiladi. Ayni kunlarda esa begona o‘tlardan tozalanib, chilla suviga qondirib sug‘orilgan va tobiga kelgan dalalarda g‘o‘za qator oralariga ishlov berish, chilpish ishlari bajarilmoqda.

Fermer xo‘jaligida paxtadan tashqari 10 gektar maydonda bug‘doy ham ekildi. Xo‘jalik g‘allakorlari joriy dehqonchilik yilida g‘alladan barakali ximmon ko‘tarib, 62 tonnadan ziyod a‘lo navli qimzim don yig‘ishtirib oldi. Hosilning muayyan qismi ijarachi-dehqon va ishchilarga berildi. Xo‘jalikda paxta va g‘alladan tashqari mo‘l ekinlar ekishga ham alohida e‘tibor qaratilgan.

— Ayni paytda 3,5 gektar maydondagi kunjut mo‘l hosildan darak beryapti. Bundan tashqari, 2 gektarda tarvuz, 1,5 gektarda qovun parvarish qilinayapti, — deydi Omonboy Rajabov. — Ishni “Daladan — dasturxonga” tamoyili asosida tashkil qilganimiz. Yetishtirilgan poliz mahsulotlari doimgidek xaridorig. Paykallarda pishib yetilgan hosilni ichki bozorda sotib, xalqimiz dasturxonini to‘kinligiga hissa qo‘shyapmiz.

Yerga mehr bergan inson baraka topadi. Qoraqalpog‘istonda mehnati tufayli xalqimiz dasturxoniga fayz-baraka bag‘ishlayotgan dehqonlar talaygina.

Minajatin QUTLIMURATOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

HAYOT SIFATIGA DAXLDOR SOHA

YOKI TIBBIYOTDAGI YANGILANISHLAR EPKINIDAN BAHRAMANDLIK XUSUSIDA MULOHAZA



Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbarining sohaga, aholi salomatligiga qaratayotgan e’tibori hududlarga tashrifi chog’ida, aholi bilan samimiy muloqot onlarida ko’p bor ko’zga tashlangan. El roziligiga erishish ruhida bu uchrashuvlarda odamlar yaxshiliklar, yangilanishlar epkinini his qilyapti. Yangi poliklinikalar, shifoxonalar, tibbiy markazlar qurilmoqda. Tibbiyotning eng ilg’or texnologiyalari joriy qilinayotir.

So’nggi yetti yilda sog’liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan mablag’ 6 karra oshirildi. Hududlardagi shifoxonalar moddiy-texnik jihatdan yangilandi.

Mahalladagi birlamchi bo’g’in bilan ixtisoslashgan xizmatlarni bog’laydigan kompleks tizim yaratildi. Ilgari faqat poytaxtda bajarilgan 400 dan ortiq yuqori texnologik amaliyot viloyat va tumanlarda o’tkazilmoqda.

Bugun tibbiyotdagi o’zgarishlar, yangilanishlarni har bir yurtodoshimiz his qilmoqda, har bir xonadonga malakali, sifatli tibbiy xizmat kirib borishiga harakat qilinayapti.

Birlamchi bo’g’in — eng zarur tizim

Sog’liqni saqlash sohasining “yuragi” hisoblangan birlamchi bo’g’in aholi salomatligini saqlash, jamiyatda sog’lom turmush tarzini qaratib berishda beqiyos o’ringa ega. Ammo yaqin-yaqin qancha mazkur bo’g’in bemaorlarga tibbiy xizmat ko’rsatish sifati past bo’lganini inkor eta olmaymiz. Eng og’irliqsi, yurtimizdagi o’lim holatlarining 60 foizi ana shu bo’g’indagi kamchiliklar tufayli yuz bergan.

Ayniqsa, birlamchi tizimda yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va erta aniqlash borasidagi ishlar tizimli yo’lga qo’yilmagan, onkologik kasalliklar ikkinchi va uchinchi bosqichga o’tib bo’lgandan keyin aniqlangan, poliklinikalar o’rtasidagi masofa uzqligi, malakali shifokorlar yetishmasligi, ijtimoiy himoyaga muhtoj minglab inson davlat shifoxonalarida bepul ixtisoslashgan tibbiy xizmat olish uchun yillab navbat kutishi muammolardan darak berardi. Axir dard kutib turmaydi, unga darmon izlanmasa, o’z vaqtida bartaraf etilmasa, og’ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Har bir fuqaro birlamchi bo’g’indagi tibbiy xizmat orqali kasalligini erta aniqlab, vaqtda davolanishi kerak va bunga haqli. Shu bois, kasalliklar profilaktikasi va erta tashxis bo’yicha takomillashtirilgan dasturlar amalga oshirildi, yangi turdagi omimaviy skrining tashkirlari yo’lga qo’yildi.

Birlamchi bo’g’inda aholiga yaratilgan qulayliklar ko’p, keling, kichik bir misolga yuzlanaylik. Gohi bor joyimiz bezovta qilsada, vaqt yetishmasligi tufayli shifokor ko’rigiga borishni ortga suramiz. Ba’zan shifoxonaga yotib davolanishda moliyaviy muammolar ko’ndalang turadi. Oilaviy poliklinikalarning o’zida ertalabdan kech soat 20:00 gacha kunduzgi stasionar joriy etilgan aholiga bunday sharoitlarda katta yengillik berdi. Qulay vaqtda poliklinikada davo muolajasini olishi, keyin ish yoki o’qishiga borishi mumkin. Shifokor va hamshira ham soat 20:00 ga qadar, so’nggi bemorni qabul qilmaguncha ish joyini tark etmaydi. Axir ularga shifo istab kelayotganlar begona emas, shu mahallaning odamlari. Ularning dardiga darmon bo’lmoq esa qo’xalati insonlarning eng oliy burchi. Qolaversa, bu tizim shifoxonalarga tushadigan yuklamani kamaytirdi.

Yangilanishlar davom etmoqda

Joriy yil 7-mayda Prezidentimiz raisligida tibbiyotning birlamchi bo’g’ini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish,

“Maqolada tibbiyotning ayrim yo’nalishlarida bajarilayotgan ishlar tahliliga nazar tashladik. Xayrli tashabbuslar, orzu va maqsadlar ro’yobi sahifaga sig’masligi mumkin. “Inson qadri uchun” g’oyasini o’zida mujassam etgan bu harakatlardan maqsad bitta — aholi salomatligini muhofaza qilish, umr atalmish ne’matni uzaytirish, odamlar hayot sifatini oshirish. Zero, sog’lom va barkamol millat jamiyatning tayanchi, bebaho boyligi.

dori iste’molini tartibga solish hamda tibbiy ta’limni takomillashtirish bo’yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida sohaning birlamchi bo’g’inini yaxshilash, kasalliklarning oldini olish, tibbiyot xodimlarining bilimini va davolash sifatini oshirish masalalariga yana bir bor e’tibor qaratildi. Aholi qamrovi, kasalliklar tahlili va murojaatlar turidan kelib chiqib, yangicha ish tartibi belgilandi.

Endi tibbiyot brigadasi hamda unga birlashtirilgan aholi o’rtasida ikki tomonlama shartnoma tuziladi. Aholi oilaviy shifokorni erkin tanlaydi, bu jarayonga xususiy shifokorlar ham jalb etiladi.

Tibbiy yordamning kafolatlangan paketi tasdiqlanishi, paket doirasida tibbiy xizmat va dori-darmon to’liq byudjetdan qoplanishi aholi uchun yana bir qulaylikdir.

Oilaviy shifokor va hamshiralari mahallada yurib, surunkali bemorlarni kasallik bilan kurashishga, uni boshqarishga o’rgatsa, onkologiya, diabet, insult, infarkt kabi xastaliklarni erta aniqlab, og’ir asoratlarning oldini olsa, maoshi oshirilishi ko’zda tutildi. Ya’ni oilaviy shifokorlar 1,5 ming dollar, hamshiralari esa 600-800 dollar ekvivalentida oylik oladigan tizim yaratilmoqda.

El roziligida gap ko’p. Fayz-baraka, tinchlik-xotirjamlik, yuksalishga aynan rozilik orqali erishiladi. Bajarilayotgan ishlar esa “Inson qadri uchun” tamoyilining hayotimizga to’la tatbiq etilayotganiga bir misoldir.



Raso bolalar sog’lom onadan dunyoga keladi

Farzand umr chirog’i, hayotimiz mazmuni. Uning to’rt muchasi sog’i, bekamu ko’st dunyoga kelishi oila baxti, jamiyat boyligi demak. Sog’lom farzandlarni esa sog’lom onalar dunyoga keltiradi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog’lom millat genofondini asrash har qanday jamiyatning ustuvor vazifasi. Zero, bugun dunyo yuzini ko’rgan sog’lom bola ertaga shu yurtning kelajagi, ravnaqiga hissa qo’shadigan asl farzand bo’lib voyaga yetadi.

Ilgari zamonaviy bolalar shifoxonasi yoki onalar uchun tibbiy jihozlar yo’qligi, kadrlar yetishmasligi tufayli go’daklar o’limi ko’rsatkichi yuqori bo’lganini inkor eta olmaymiz. Ayniqsa, muddatidan erta tug’ilgan chaqaloqlarning hayoti xavf ostida qoldi. Bugun ularning yashab ketishi uchun bor imkoniyat ishga solinmoqda. Natijada 80 foiz shunday bolalarning hayoti saqlab qolinyapti.

Perinatal markazlar, akusherlik, ginekologiya muassasalariga zamonaviy jihozlar olib kelinmoqda. Xalqaro odozalarga mos klinikalar ishga tushirilyapti. Malakali kadrlar shakllanishiga e’tibor qaratilmoqda.

Bola tug’ilgandan keyin ham qo’shimcha mikronutriyent, vitamanga boy, kompleks ovqat va voyaga yetgunga qadar turli vitamin, antigelmint preparatlar bilan ta’minlash bolalarning ham ruhan, ham jismonan ratsional, sog’lom o’sishiga zamin yaratadi.

O’sayotgan homiladagi kasallikni aniqlab, uni ona qornida operatsiya qilib, sog’lomlashtirish amaliyoti dunyoda ancha rivojlangan. Bizda ham ana shu amaliyot qo’llanilayotgani tibbiyotimizdagi yutuqlardan biridir.

Ayni paytda poliklinikalarda 8,5 ming patronaj doysasi bo’lajak onalar bilan ishlayapti. Har bir homiladorlikni erta aniqlash, qamrab olish, farzand kutayotgan ayolning turmush tarzi, zarur tekshiruvlardan o’tishi, u iste’mol qilishi kerak bo’lgan dori-darmon nazorati patronaj hamshiralari zimmasida.

Endilikda poliklinikada akusher-ginekologlar 2 barobar ko’paydi. Har 3 ming bola uchun 1 tadan pediatri shifokori yangidan qo’shilishi ko’zda tutilgan.

Bugun ona va bola salomatligiga katta e’tibor qaratilyapti. Homilador ayollar holati doimiy monitoring qilib borilmoqda, xavf omillari aniqlanganda davolash choralarini ko’rilyapti. Reprodukativ yoshdagi aholi va homilador ayollar o’rtasida tibbiy madaniyat, kasalliklar profilaktikasi va sog’lom oilani rejalashtirish bo’yicha targ’ibot ishlari olib borilyotir. Ayniqsa, farzandning har jihatdan sog’lom tug’ilishi va ona salomatligini asrashda barcha imkoniyat ishga solinyapti. Chunki onalik va bolalikni asrash millat kelajagini muhofaza qilish demakdir.

Davlat e’tibori ustuvor

Ijtimoiy va iqtisodiy hayotni yaxshilamasdan turib, aholining salomatligi haqida qayg’urish samarasiz. Shu o’rinda aholining ishsiz yoki juda kam maosh uchun ishlaydigan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami biror kasallikka chalinganda qanday davolanadi degan haqli savol tug’ilishi mumkin. Deylik, yuqori texnologiyaga asoslangan jarrohlik amaliyotini o’tkazish zarurati tug’ilsa yoki yurak nuqsoni, murakkab transplantatsiya amaliyotiga ehtiyoj paydo bo’lsa, kam ta’minlangan aholi qatlami bunga sarflanadigan mablag’ni qayerdan topadi?

Bugun rivojlangan davlatlarda majburiy tibbiy sug’urta tizimi amal qiladi. Bu orqali byudjet xarajatini kamaytirish, tibbiy xizmat sifatini oshirishga erishilgan. Yurtimizda ham bu bo’yicha dastlabki sa’y-harakatlar 2021-yilda Sirdaryo viloyatida pilot loyiha sifatida boshlandi. Birlamchi bo’g’inda oilaviy shifokor va universal hamshira o’z hududiga birlashtirilgan aholini qamrab oldi,



dastlabki tekshiruvlar tufayli aholining muayyan qismi ambulator, yana bir qismi esa stasionar davolanishga yo’naltirildi. Natijada uzundan uzoq navbat kamaydi.

Bu tizim bosqichma-bosqich joriy etilayotganiga qaramay, o’zi davlat tibbiy sug’urtasi nima degan savolga tez-tez duch kelamiz.

Sog’lig’ingizda muammo kuzatilganda davlat moliyaviy kafolat beradi. Tizim orqali



fuqarolarning tibbiy xizmatlar uchun “o’z cho’ntagidan” to’laydigan mablag’lari qisqaradi hamda ular istalgan tibbiyot muassasasida sifatli xizmat olish imkoniga ega bo’ladi. Davlat tibbiy sug’urtasi fuqaroning sog’lig’i yomonlashgan taqdirda katta xarajatlarni oldindan kafolatlash imkonini beradi. Bu nafaqat aholi, balki butun tibbiyot tizimi uchun ham samaradorlikni oshiruvchi vositaga aylanadi.

Barcha uchun teng tibbiy xizmat, tibbiy xizmat narxlarining shaffof va maqbul bo’lishi, birlamchi tibbiy yordam ko’lamini kengaytirish, davolash muassasalarini natijaga qarab moliyalashtirish, tibbiy muassasalar o’rtasida sog’lom raqobat muhitini shakllantirish tizimning asosiy afzalliklaridandir.

Mamlakatimizda aholiga sifatli, barcha uchun barobar tibbiy xizmat ko’rsatish maqsadida davlat tibbiy sug’urtasi tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu mexanizm orqali aholining ijtimoiy himoyasi va tibbiy xizmatlarning sifatli va teng taqsimlanishi ta’minlanmoqda.

Ayniqsa, eng ko’p tarqalgan va uzoq muddatli muolajani talab qiluvchi surunkali kasalliklar — gipertoniya, yurak ishemik kasalligi, 2-tur qandli diabet, bronxial astma va surunkali obstruktiv o’pka kasalligi bo’yicha bemorlarga zarur dori-darmon davlat tomonidan bepul beriladi.

Bu mexanizm reimbursatsiya deb nomlanadi. Shu uslub orqali 2021-2025-yillar mobaynida 83 ming bemorga 212 ming elektron retsept orqali xizmat ko’rsatildi, 816 ta dorixona reimbursatsiya tizimiga jalb etildi. Jami 4,79 trillion so’mlik dori-darmon davlat tomonidan qoplab berildi.

Shuningdek, aholining imtiyozli toifalari — bolalar, keksalar va nogironligi bo’lgan shaxslar

transplantatsiyasi, sun’iy bo’g’imlar o’rnatish, endoprotezlash kabi murakkab jarrohlik amaliyotlari kiradi.

O’tgan yillar mobaynida elektron yo’llanma va retseptlar inson omilini kamaytirishiga erishildi. “Medrefer” tizimi orqali to’lovlar va hisobotlar shaffoflashdi. Davlat xarajatlari samarali va maqsadli yo’naltirilmoqda. Aholiga tezkor, tekin va qulay tibbiy yordam ko’rsatilmoqda.

Qilinyotgan ishlar qanchalik salmoqli bo’lmasin, afsuski, muammolar yo’q emas. Prezidentimiz raisligida joriy yil 7-maydagi

tejavshiga shubha yo’q. O’z navbatida, shifokor qabuliga kirish uchun uzundan uzoq navbatlar, sansolarlik va sarsongarchilikning barham topishi odamlarimiz tizimdagi islohotlardan kutayotgan natija.

Elektron tizimda bemor uydan turib shifokor qabuliga onlayn yozilishi, qabul vaqtini oldindan belgilashi mumkin. Raqamlashtirish bemor o’z sog’lig’ini mobil ilovalar va elektron qurilmalar orqali kuzatishi va shifokor bilan aloqada bo’lishi, tibbiy xizmatlarni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Yana bir muhim bo’g’in

— Allo, bu tez yordammi?

Bu holat ko’pchiligimizga tanish. Issiq jonning istisami bor deganlaridek, har birimiz tez yordamga murojaat qilib turamiz. Shunda tibbiy xizmat o’z vaqtida ko’rsatilsa-ku, xo’p-xo’p, ammo kechiksa, inson hayoti xavf ostida qolishi hech gap emas. Holatlar turlicha bo’lishi mumkin, talab esa bitta — tibbiy yordam tez va sifatli ko’rsatilishi shart! Odamlarning hayotini saqlab qolish va sog’lig’ini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etayotgan bu yo’naliish ham yangilanishga muhtoj edi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 16-iyundagi “Aholiga tez tibbiy yordam ko’rsatish tizimini takomillashtirish to’g’risida”gi qarori bilan Respublika tez tibbiy yordam markazi tashkil etilib, uning yagona vertikal boshqaruv tizimi yo’lga qo’yildi. Sohaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, zarur uskunalar bilan ta’minlandi.

Tez yordamda bitta chaqiriqqa dori-darmon uchun ajratilayotgan mablag’ miqdori sezilarli darajada ortdi. Tez tibbiy yordam brigadalari soni oshdi. Tizimga tegishli 70 ga yaqin bino va inshoot qurildi yoki ta’mirlandi.

Sohada avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi joriy etilishi natijasida chaqiriqlarga yetib borish vaqti keskin qisqardi. Bundan tashqari, Toshkent shahri tajribasi asosida markazning hududiy filiallariga yagona Call-markazlar faoliyati yo’lga qo’yildi.

Avtomatlashtirilgan tizimga o’tishdan oldin chaqiriqni qayd etishning o’ziga 8-10 daqiqa ketardi. Hozir soniyalarda, uzog’i bilan 1-2 daqiqada murojaat qabul qilinib, tez tibbiy yordam brigadasi planshetiga chaqiriq manzili yuborilyapti. Tizimda eskirgan avtotransport vositalari yangilangani yetib borish vaqtini kamaytirdi.

Kelgusida sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish, oilaviy shifokorlik va tez tibbiy yordam tizimini o’zaro bog’lash, raqamlashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, avtomagistral yo’llarda 103 punktlarini tashkil etish, tizimdagi mavjud avtomashinalarni ixcham reanimatsion jihozlar bilan ta’minlash rejalashtirilgan.

Maqolada tibbiyotning ayrim yo’nalishlarida bajarilayotgan ishlar tahliliga nazar tashladik. Xayrli tashabbuslar, orzu va maqsadlar ro’yobi sahifaga sig’masligi mumkin. “Inson qadri uchun” g’oyasini o’zida mujassam etgan bu harakatlardan maqsad bitta — aholi salomatligini muhofaza qilish, umr atalmish ne’matni uzaytirish, odamlar hayot sifatini oshirish. Zero, sog’lom va barkamol millat jamiyatning tayanchi, bebaho boyligi. Ular bilan ko’zlangan marraga borish, yurtni yuksaltirish mumkin.



yig’ilishda tibbiy sug’urtani joriy etish yildan yilga surilib kelayotgani keskin tanqid qilindi. Toshkent shahrida o’tgan yili, Qoraqalpog’iston, Navoiy, Samarqand, Farg’ona, Surxondaryo va Xorazmda shu yil ushbu tizim ishga tushishi kerak edi. Ammo amaliy natija talab darajasida emas.

Raqamlashtirish nima uchun zarur?

Shifokor bemorga aniq va tezkor tashxis qo’yish uchun uning kasallik tarixi bilan tanishib chiqishi kerak. Qolaversa, bu belgilangan muolajaning yuqori samara berishida ham katta ahamiyatga ega. Tasavvur qiling, agar vrach bemorning chaqaloqligidan tortib hozirgi holatigacha bo’lgan davrda qaysi xastaliklarga chalingani, qanday tekshiruvlardan o’tgani, nima dori qabul qilgani va boshqa salomatlik ko’rsatkichlari kabi aniq hamda batafsil ma’lumotlarga soniyalar ichida ega bo’lsa, jarayon naqadar osonlashgan bo’lardi. Bir paytlardagidek bemorning bir turdagi tekshiruvlaridan poliklinikada alohida, tuman shifoxonasida alohida, viloyat va respublika tibbiyot muassasalarida takror-takror o’tishidan xalos bo’lishi ham aholining vaqtini va naqdini

Eski lug‘atlarda ko‘rsatilishicha qahramon arabcha qahr so‘ziga nisbat qo‘shimchasi — mon — birliktirib yasalgan. Bu qo‘shimcha, darhaqiqat, shodmon, bilarmon, toparmon so‘zlarida shodlik, bilimdonlik, topag‘onlik nisbat berilgan kishilarni anglatadi. O‘ylasam, tegirmon ham shu qo‘shimcha bilan yasalgan ekan. Tegirmon toshi aylana shaklida bo‘ladi. Aylana ma‘nosini bildiruvchi tegra so‘zimiz bor. Bu so‘zning so‘nggi tovushi so‘zlashuv jarayonida qisqarib, mon qo‘shilsa tegirmon — tegirmon chiqadi. Bu bizning talqin. Faraz aytish bizdan, tekshirib aniqlash olimlardan.





deyilishi ham ana shu shahar nomi bilan bog‘liq ekan.

Bahodir — men aytmasam ham bilasiz, — o‘zbekcha so‘z. Lug‘atlarda ism Bahodur shaklida yozilgan va shijoatli degan ma‘noni bildiruvchi turkiy kalom deyilgan. Bahodir ismi o‘zimizda keng tarqalgan. Rus tiliga ham bogatir shaklida o‘tgan. Qizig‘i shuki, bu turkiy o‘zbekcha ism dunyoga yoyilibdi, ayniqsa, sharqda Bahodir ismli kishilar ko‘p. Hindistonning bosh vaziri bo‘lgan La‘l Bahodur Shastrini olam taniydi. Ayniqsa, o‘zbeklar hurmat bilan yodga oladilar. Tarixiy missiya bilan Toshkentga kelib, shu yerdə vafot etgan. Shahrimiz markazida unga xotira lavh o‘rnatilgan. Bosh vazirning Bahodur ismi Hindistonning birinchi bosh vaziri bo‘lgan Javoharla‘l Neruning so‘zlarini tasdiqlaydi: turkiy xalqlar Hindistonga to‘rt ming yil muqaddam ko‘chib kela boshlaganlar...

“

QADIMGI LUG‘ATLARNI VARAQLAB KO‘RSANGIZ, ULARDA HAM TURLICHA TALQINLARNI TOPASIZ. BIZ ULARNING BARCHASINI MO‘TABAR MANBA DEB HISOBLAYMIZ-U, BA‘ZAN QAY BIRIGA ISHONISHNI BILMAY QOLAMIZ. QAHRAMON SO‘ZINING ASLIYATI TO‘G‘RISIDA HAM TURLICHA FIKR BOR. BA‘ZI TADQIQOTCHILAR BU SO‘ZNI TURKIY DEYDILAR VA ASL SHAKLINI QAHRAMON DEYA KO‘RSATADILAR.



Ariq deb suv o‘zanini aytmiz. Ozg‘in ma‘nosidagi oriq so‘zining farg‘onacha aytilishi ham ariq. Aslida ariq toza demakdir. Sochiq bilan qo‘l artsak, biz qo‘limizni suv namidan aritamiz, ariq qilamiz, tozalaymiz. Uyimizdan odam arimasa, demak, xonadonimiz hamisha gavjum, mehmondan xoli emas. Ariq, artist, artish bir o‘zakdan ekan ma‘lum. Lekin toza ma‘nosidagi so‘z qanday qilib suv o‘zaniga aylandi? Buni tasavvur qilish uchun bizlar bolaligimizda ko‘rgan ariqlarni ko‘z oldimizga keltirmog‘imiz kerak. Tandirdan yangi uzilgan, qo‘lni kuydiradigan nonni ariq suvida oqizoq qilib yeganimizni, qirg‘oqda o‘tirib hovuchlab zilol suvdan ichganimizni

eslamog‘imiz kerak. Ana o‘sha ariqlar haqiqatan ariq edi. Suvga suprindi tashlash, tupurish og‘ir gunoh sanalardi.

Ariq avval boshda ariq suv — toza suv atalib, keyinchqa qisqarishga yuz tutgan bo‘lishi kerak. Bamisoli zimiston qorong‘isi ixchamlashib zimistonga aylangandek. Ozg‘in odamni ham oriq yoki ariq deyilishi besabab emas. Oritqcha yukdan toza badan ariq bo‘ladi. So‘fi Olloyorning baytiga quloq tuting: Ariq‘ jismim agar bo‘lsin desang sog‘, Sanoch og‘zin san och albatta kamrog‘.

Erkin VOHIDOV,
O‘zbekiston xalq shoiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalanadi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
34972 nusxada bosildi.
Muayyano, Surayyo, Ra‘no, Muqaddaslar kuyagan diltortar qo‘shiqlar mavzusiga bugun yana murojaat qilmay qo‘ygandekmiz...

Mavzuga qaytib...

“Yangi O‘zbekiston” gazetasida (joriy yil 30-mart, 65-son) iqtidorli yosh hamkasbimiz Azizbek Yusupovning “Do‘ppi kiyam... yoxud milliylikimiz namunası bugun mazax obyektiga aylanib qolmayaptimi?” maqolasi e‘lon qilingan edi. Unda muallif kuyinchaklik bilan milliy bosh kiyim — do‘ppining bugunga kelib odamlar ongida beo‘xshov buyumga aylanib qolgani, uni kiygan odam didsizlikda

Aybdor kim?

Shu o‘rinda o‘ylanib qoldim: balki milliy mato va liboslarimizga xorij podiumlarida bizning asabga tegayotgan munosabatga o‘zimiz sababchidirmiz. Avval o‘z yurtimizda, o‘z millatdoshlarimiz orasida meros bo‘lib kelayotgan boqiy qadriyatlarini munosib himoya qila olsak, o‘shanda chet ellarda ham uning mavqei oshadi. Qachonki milliy kiyimlar har bir xalqning madaniy qiyofasi, milliy o‘zligining ifodasi ekanini, shonli tarixi uning matolarida, rang va naqshlarida namoyon

MEZON

Qadriyat

YANGI O‘ZBEKISTON

TARIX, SAN‘AT VA MADANIYAT TIMSOLI

Milliy kiyimlarimizga hurmat burchga aylanmog‘i lozim



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

qaratilgan “Milliy Toshkent” loyihasi asosida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan chora-tadbirlar rejası tasdiqlangani ko‘pchilikning olqishiga sabab bo‘ldi.

“Milliy liboslar va milliylikni ommalashtirishga oid targ‘ibot materiallarini ishlab chiqish, korxona, muassasa va tashkilotlar hamda mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan hamkorlikni tashkil etish, ommaviy tadbirlar davrida milliy liboslar va milliylikning mavqei mustahkamlanishini ta‘minlash, milliy liboslar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash” kabi yo‘nalishlar ishchi guruhning asosiy vazifalari sifatida qayd etildi. Bu bo‘yicha Toshkent shahri hokimi o‘rinbosarlari, boshqarma va tashkilotlar, tuman hokimliklariga tegishli vazifalar yuklandi.

Natijada shahar miqyosida o‘tkaziladigan barcha ommaviy tadbirlar (bayramlar, festivallar, ko‘rgazmalar, sport musobaqalari, konsertlar va boshqalar) milliy uslubda bezatilishini hamda ishtirokchilarining milliy liboslarda bo‘lishini ta‘minlash va boshqa ko‘plab vazifalar belgilandi.

Shuningdek, ommaviy tadbirlarda eng yaxshi milliy liboslar namoyishi, milliy o‘yinlar, milliy raqs va qo‘shiqlar tanlovlari o‘tkazilib, g‘oliblarga sovg‘alar hamda diplomlar berib borilishi nazarda tutildi.



Yuqoridagi tashabbus shiddat bilan boshlangan edi. Nazarimizda, oradan 5-6 oy fursat o‘tib, bugun uning cho‘g‘i bir oz pasaygandek. “Qayga bormay boshda do‘ppim, g‘oz yurarman gerdayib”, deya faxr qilgan Erkin Vohidov, milliy kiyimdagi qizlarimiz oldida osmondagi oy ham xijolat ekanini isbotlab ketgan Muhammad Yusufning o‘tli satrlari, xalqimizning sevimli san‘atkori Ne‘matjon Qulabdullayev “ko‘zi yashnab” Muhayyo, Surayyo, Ra‘no, Muqaddaslar kuyagan diltortar qo‘shiqlar mavzusiga bugun yana murojaat qilmay qo‘ygandekmiz...

aylanib, do‘ppili odam keragidan ortiq to‘pori kishi degan tasavvur shakllangani va shu kabi og‘riqli masalalar sabablari tahlilini keltiradi. O‘sha maqoladan keyin o‘zim ham bu masalaga boshqacha nigoh bilan qaray boshladim. Darhaqiqat, davlat va xususiy telekanallarda tinmay efigra uzatilyotgan zamonaviy xonandalar ijrosidagi qo‘shiq'larga ishlangan kliplar, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilyotgan tuturiqsiz va toshbosmas mem, vayn, videolavhalaridagi merovvroq, dovdirroq, almayoı-aljoyi gaplari bilan bachkanalik qilayotgan aksariyat qahramonlar do‘ppida yoki

bo‘lishini anglasak, so‘ng boshqalarga ham anglatib qo‘yishimiz oson kechadi.

— Atlas va adras kabi matodan tikilgan milliy liboslarni masxara qilish, ularni zamonaviy kiyimlardan past ko‘rish milliy qadriyatlariga nisbatan hurmatsizlik, — deydi Yevropada vaqtincha faoliyat yuritayotgan dizayner Shahzoda Qobiljonova. — Ijtimoiy tarmoqlarda bu kabi muomalalar tarqalishi, hatto yoshlar orasida uyaliy, milliy libosdan voz kechish holatlari ko‘payishi xavotirli holat. Besh yoshli qizim o‘zimiz istiqomat qilayotgan shahardagi bog‘chaga boradi. Guruhida



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



to‘n kiyib olgan holatda taqdim qilinmoqda. Boshqa “aqli, boyvuchcha, tadbirkor” personajlar esa oddiy, zamonaviy kiyimda. Maqsad nima? Mato to‘qiydigan hunarmandlar, do‘ppido‘zlar, to‘n tikuvchilar san‘ati azaldan yuksak qadrlangan, e‘zozlangan, ular jamiyatda muayyan mavqega ega bo‘lgan. Nima uchun ularning mehnat mahsulidan “sanoatkorlar” teskari maqsadlarda foydalanyapti? Nega aynan faqat tomoshabin kulishi, aniqrog‘i, mazaxlashi uchun kiritilgan obrazlarga milliy liboslar kiydirish urfga kirib ketdi?

asosan boshqa davlatlardan kelgan turli millat vakillarining jaji farzandlari yig‘ilgan. Qizim har kuni bog‘chasiga milliy libosda boraman deydi. Negaki tarbiyachilar milliy libosdagi bolalarni boshqalarga har kuni o‘rnak qilib ko‘rsatar ekan.

Ha, milliy kiyim orqali kimning qaysi xalq, qaysi millatga mansub ekanini aniqlash mumkin. Agar biz bugun milliy kiyimlarni qadrlamasak, ertangi avlod ularni umuman tanimay qolishi mumkin. Atlas va adras esa shunchaki ipak mato emas, ular orqali xalqimiz asrlar davomida o‘z madaniyatini, urf-odatini namoyon qilib kelgan. Hozir milliy matolarni kiyishdan uyaliy holatlari, afsuski, yo‘q emas. Dizaynerlarimiz milliy matolardan juda chiroyli, zamonaviy fasondagi ko‘ylak, kostyum va aksesuarlar tiklaypti. Faqat ularni kiyib bera olsak kifoya.

— Milliy kiyimlarni kiyish yoshlar ongida milliy g‘urur, vatanga muhabbat va tarixga hurmat tuyg‘ularini shakllantiradi, — deydi pedagog Qudratilla Karimov. — Milliy liboslar orqali yoshlar o‘z ildizlariga, ajdodlarining hayot tarziga va qadriyatlariga yanada yaqinlashadi. Bu esa ularning o‘zini tanishi, madaniy o‘zligini anglashi va ma‘naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, milliy kiyimlar odob-axloqni, soddalikni, or-nomusni qadrlashga undaydi. Qizlar orasida adras, atlas kabi matolardan tikilgan liboslar kiyish ularni xushmuomala, odobli va estetik did, nafislik bilan tarbiyalashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘g‘il bolalar esa milliy kiyimlar orqali mardlik, jasorat, turkiy xalqlarga xos g‘urur va bir so‘zilik kabi xislatlarni o‘zida mujassamlashtira oladi.

Muxtasar aytganda, o‘zbek milliy kiyimlari oddiy matolardan tikilgan, tayyorlangan libos va buyumlar ekan, balki tarix, san‘at, madaniyat va o‘zlik timsolidir. Ular nafaqat to‘y, ma‘raka, marosimlarda, balki kundalik hayotda ham o‘rmini topib borishi lozim. Ularni asrash, avaylash, yangi avlodga yetkazish har birimizning vatan va millatimiz oldidagi farzandlik burchimizdir.

Ahamiyat berdingizmi, so‘nggi payt xalqaro arenalarda sportchilarimiz, ayniqsa, futbolchilarimiz har safar zafar quchib, g‘alaba yoki natijani qo‘lda vatan bayrog‘i, boshda do‘ppisi bilan nishonlaypti. Muxlislar ham kiyib olgan do‘ppisi orqali kimni yoki qaysi jamoani qo‘llab-quvvatlayotganini ayon qilaypti. Bu yaxshi tendensiya, albatta.

Yuqorida keltirganimiz milliy mato va liboslarimizga mensimay munosabatda bo‘layotgan, bo‘lganda ham sharmsizlarcha taqdim qilayotganlarga esa aytadiganimiz shu: millatimiz vakillarining ichidagi qog‘oz ko‘tara olmaydigan gaplarni qo‘zg‘amang. Aks holda, o‘zimizga javob bera olmay qolamiz.